

ISLAND TILINING O'ZIGA XOS MILLIY
EVOLUTSIYASI

Nozimova Dilafro'z Kamolxon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola island tilining milliy evolutsiyasi, undagi ayrim atamalarning ta'riflari, grammatikasiga xos bo'lgan alohida jihatlari haqida shuningdek island tili taraqqiyotini o'rganish bilan shug'ullangan olimlarning fikrlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari skandinav tillarining geografik tarqalishi hamda island tilidagi lisoniy purizm siyosati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Island tili, lisoniy purizm, Marieke Olthof, "Tölva", Sigtrigger Jonason, ismlar reystiri.

Abstract: This article provides information about the national evolution of the Icelandic language, the definitions of certain terms used in it, and the distinctive features of its grammar. It also discusses the views of scholars who have studied the development of the Icelandic language. In addition, the geographical distribution of the Scandinavian languages and the policy of linguistic purism in the Icelandic language are discussed in detail.

Keywords: Icelandic language, linguistic purism, Marieke Olthof, "Tölva", Sigtrigger Jonason, Íslensk málstefna.

Аннотация: В данной статье представлена информация о национальной эволюции исландского языка, определениях некоторых терминов, используемых в нём, а также об особенностях его грамматики. Кроме того, рассматриваются взгляды учёных, занимавшихся изучением развития исландского языка. Также подробно освещаются географическое распространение скандинавских языков и политика лингвистического пуризма в исландском языке.

Ключевые слова: исландский язык, лингвистический пуризм, Марики Олтоф, «Tölva», Сигтриггер Йонасон, реестр имён.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar mavjud bo'lib, ular turli oilalarga mansubdir. Ushbu tillar orasida Island tili o'rganish uchun eng murakkab tillardan biri hisoblanadi. Turli reytinglarda u odatda eng qiyin o'nlik orasida keltiriladi. Ushbu til Hind-Yevropa tillar oilasining German tillari guruhiga mansub bo'lib, hozirgi kunda 3500 000 ga yaqin so'zlashuvchiga ega va ularning ko'pchiligi Islandiya orolida istiqomat qiladi. Har bir tilning o'z tarixi bo'lgani kabi, Island tilining ham o'ziga xos evolutsiyasi mavjud. Islandiya orolini tadqiqotlarga ko'ra, jangari Shimoliy German dengizchilari kashf qilgan. Taxminan 850-yillarda birinchi sayohatchi-Maddodd tasodifan orolga kelib qoladi va bu yerdagi sovuq ob-havo va tog'larda qor yog'ayotganini kuzatib uni "Snowland" ya'ni "Qor mamlakati" deb ataydi. Keyinchalik orolga tashrif buyurgan ikkinchi sayohatchi-Garvor Svavarsson bu yer orol ekanligini aniqlaydi va unga o'z ismini beradi. Va nihoyat, keyingi sayohatchi Flok Velgerdasson tashrif buyuradi va qattiq qish va muzlarni ko'rib, bu orolni "Iceland" ya'ni, "Muzlar mamlakati" deb ataydi.

Ma'lumotiga ko'ra, Island tili IX asrda Islandiyaga ko'chib kelgan norveg vikinglari tomonidan ishlatilgan. Qadimgi norveg tili asosida shakllangan Island tilining murakkab ekanligining yana bir sababi, bu tillar ming yillar davomida deyarli o'zgarishsiz qolgan. Bunga asosiy sabab geografik yakkalanish deb taxmin qilinadi. Islandiya Shimoliy Atlantika okeanidagi orol davlat bo'lib, Yevropa materigidan ancha yiroqda joylashgan. Shu sababli asrlar davomida mamlakatning boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalari cheklangan. Mashhur tilshunos olim Layn Kempbellning ta'kidlashicha til o'zgarishiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar orasida millatlararo mulaqot muhim hisoblanadi. Biroq Island tili geografik yakkalanish sababli qadimgi norveg tilining arxaiik xususiyatlarini saqlab qolgan. Yana bir mashhur olim Marieke Olthof fikricha, Island tilining konservativligining asosiy sabablaridan biri uni izolatsiyalangan holda rivojlanganligi bo'lishi mumkin. Avvalo, Islandiyaning joylashuvi tabiiy ravishda yakkalanishga sabab bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra Islandiyada hozirgi kunda istiqomat qiluvchi aholi XII-XIII asrlarda yozilgan ko'plab matnlarni maxsus tarjimalarsiz o'qiy oladilar. Bunga sabab, albatta, Island tilining murakkab o'zgarishlarga deyarli uchramaganidir. Bu holat tilning tarixiy uzluksizligi va lisoniy purizm siyosatining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Lisoniy purizm siyosati-bu tilni chet tillardan kirib kelgan so'zlardan imkon qadar asrash siyosati hisoblanadi. Yangi tushunchalar va texnologiyalar uchun tilning ichki imkoniyatidan foydalangan holda yangi atamalar yaratish va shu asosda tilni sof va madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga urinish siyosatidir. Islandiyada shu vazifani bajaradigan maxsus til muassasalari, jumladan, "Arni Magnusson institute for Icelandic Studies" va "Icelandic Language Council". Ular yangi terminlarni ishlab chiqish, tilning me'yorlarini saqlash va lisoniy purizm siyosatini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Island tilida ba'zi internatsional so'zlarning tilning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilgan muqobillari mavjud. Masalan, "computer" "Tölva" island tilida maxsus yaratilgan so'z bo'lib, "tala"-son va "völva" - "bashoratchi" ma'nolarini anglatadi va u "Raqamlar bilan ishlovchi donishmand" yoki "Hisob-kitob qiluvchi bashoratchi" degan ma'noni anglatadi. Lisoniy purizmning yana bir mashhur namunasi bu telefon so'zidir. Island tilida telefon so'zi o'rniga "Simi" so'zi ishlatiladi. Bu so'z qadimgi island tilida "ip", "arqon" ma'nolarini bildirgan. Telefonlarning birinchi namunalarida ovoz sim orqali uzatilganligi bunga sabab bo'lgan.

Island tili islandiya orolidan tashqari Kanadaning Manitoba viloyatida ham tarqalgan. Daryo.uz saytining ma'lumotlariga ko'ra, 1875-yilda Sigtrigger Jonason boshchiligidagi bir guruh islandlar Manitobadagi Vennipeg ko'li bo'yiga o'rnashib, Kanada hukumati ajratgan yerda yangi qishloqqa asos solgan. Ming kishi yashagan bu qishloq hatto o'zini Kanadadan mustaqil deb e'lon qilgan va konstitutsiyasini ishlab chiqqan. Ammo, 1880-yilda qish sovuq kelib, ko'plab islandlar halok bo'lgan, shundan so'ng Kanada bu yerlarni o'ziga qaytarib olgan. Shunga qaramay, Yangi Islaniya qishlog'i bugun ham bor, u yerda yashovchi 1400 kishi bugun ham island tilida gapiradi.

Islandiyada yana bir qiziq narsalardan biri shundaki, Islandiyaliklar familiyaga ega emaslar. Ularning ismlariga otalarining ismi qo'shib aytiladi, xolos. Masalan, agar otasining ismi Yohan bo'lsa, uning o'g'lining ismiga familiya o'rniga Yohansson ya'ni Yohanning o'g'li atamasi qo'shib yoziladi. Uning qizining ismiga esa, Yohandottir yani Yohanning qizi

qo'shib aytiladi. Bu uslub island tilining boshqa tillardan ajralib turishiga xizmat ham qiladi, albatta. Ushbu tizim tufayli hatto telefon kitoblari va rasmiy ro'yxatlarda odamlar familiyasi bo'yicha emas, ismlarining alifbo tartibi bo'yicha yoziladi. Islandiyada hatto ismlar reystiri ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, chaqaloqqa qo'yiladigan ismlar shu reystrdan olinishi va shu yerdagi talablarga bo'ysunishi kerak. Ism island tilining imlo qoidalariga asosan yozilishi, unda island alifbosida mavjud bo'lmagan harflar qatnashmasligi va kelishiklar bo'yicha turlanishda muammoga duch kelmasligi kerak.

Island tilining grammatikasida ham bir muncha qiyinchiliklar mavjud. Island tilida uchta grammatik jins mavjud bo'lib, bular: erkak, ayol va o'rta jins hisoblanadi. Bundan tashqari island grammatikasida to'rtta kelishik ham mavjud. Otlar son, jins, va aniqlik kategoriyalariga ko'ra tuslanadi. Sifatlar esa aniqlik va noaniqlik shakllarida turlanadi. Fe'llar kuchli va kuchsiz fe'llarga ajratiladi. Ular shaxs, son, zamon, mayl va nisbat bo'yicha tuslanadi Island tilida indikativ, subyunktiv va buyruq mayli faol qo'llaniladi. Gap bo'laklarining o'rni ma'lum darajada erkin hisoblanadi. Island tili grammatikasining yana bir muhim xususiyati shundaki, aniq artikl otning oxiriga qo'shiladi, noaniq artikl esa umuman mavjud emas. Grammatikadagi bu xususiyat boshqa skandinav tillarida ham mavjud bo'lsada, Island tilida ancha to'liq saqlanib qolgan.

Islandiyada 1995-yildan beri 16-noyabr ona tili kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. Island tilida o'ziga xos harflar ham mavjud bo'lib, bu harflar qadimgi german yozuv an'alaridan saqlanib qolgan va bugungi kunda ham island alifbosi tarkibida mavjud. Islandiyada deyarli barcha aholining savodxonlik darajasi yuqori bo'lib, bu tilnig me'yoriy shaklini saqlash va uni targ'ib qilishga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari Island tilida deyarli shevalar mavjud emas. Bunga sabab aholining soni kamligi va tilga bo'lgan e'tibordir, Mamlakatda island tilining mavqeyini saqlab qolish masadida xorijiy filmlarni dublyaj qilishdan ko'ra subtitrl orqali tomosha qilishni afzal ko'radilar, shu sababli aholining ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan rasmiy hayotda island tili mavqeyini saqlab qolgan. Islandiyada til milliy o'zlikning asosiy ramzlaridan biri hisoblanadi shu sababli tilni asrash faqat madaniy emas balki, davlat siyosati uchun ham muhim hisoblanadi.

Shimoliy German tillar guruhida island tilidan tashqari norveg va shved tillari ham kiradi. Bu tillar o'zaro qarindosh bo'lishiga qaramasdan bir qancha farqli jihatlari mavjud. Masalan, island tilida to'rtta kelishik va uchta jins saqlangan. Shved va dan tillarida esa kelishik atamasi deyarli yo'qo lib ketgan va grammatika ancha soddalshgan. Bundan tashqari island tilida fe'llarning tuslanishi va otlarning turlanishi boshqa skandinav tillariga nisbatan ancha murakkabroq deb hisoblanadi. Zamonaviy shved, norveg va dan tillarida so'zlashuvchi aholi ma'lum darajada bi-birlarini tushuna oladilar, ammo, ular uchun island tilini tushunish ancha muammo tug'diradi va bunga asosiy sabab island tilida tarixiy grammatik shaklning ma'lum darajada saqlanib qolishidir. Island tilining grammatika va tarixini o'rganishdan asosiy maqsad tilning qanday qilib asrlar davomida deyarli o'zgarishsiz kelayotganligini tahlil qilish va island xalqining ona tiliga bo'lgan hurmati hamda e'tiborini o'quvchilarga taqdim etishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Spolsky, Bernard. “Language Policy” Cambridge: Cambridge University Press, 2004. 182-18p
2. Karlsson.S. Translated by Rory McTurk “ The Icelandic Language” London: Viking Society for Northern Research, University College London, 2004. 7-9 p
3. Barnes.M. “A New Introduction to Old Norse” London: Viking Society for Northern Research, University College London, 2008. 4-9-10-15p
4. Bandle.O. “The Nordic Languages” Berlin–New York: Walter de Gruyter, 2002. 1750-1775p
5. <https://www.arnastofnun.is/en/language/> (Date accessed: 03.07.2026y)
6. Daryo.uz O‘zbekiston axborot portali. (Murojaat qilingan sana:03.07.2026y)